

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"
Rektor O. R. Xisrova

2021 yil 28.09.2021

MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK ASOSLARI

FANNING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200000	– San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230000	– Tillar
Ta'lim yo'nalishlari:	60230100	– Filologiya va tillarni o'qitish
		– (sharq mumtoz tillari)
	60230300	– Matnshunoslik va adabiy
		manbashunoslik (sharq tillari bo'yicha)
	60220500	– Falsafa (Sharq falsafasi va madaniyati)

Toshkent – 2021

Handwritten signature

2

Handwritten signature

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar
MMA104	2021-2022	2	4
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O'zbek		4
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)
	Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari	60	60
2	I. Fanning mazmuni		
	<p>Fanni o'qitishdan maqsad – "Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari" dasturida dars mavzularining taqsimlanishi, asosan, ikki soat hisobidan bo'lib chiqildi. Mustaqil o'rganish uchun mavzular darsning asosiy mavzusini yoritishi mumkin bo'lgan, yangi paydo bo'layotgan materiallar bilan boyitib borilishi tavsiya etiladi. O'quv jarayonida talabalar yozma manbalarni qidirib topish, tartibga solish va keyingi ilmiy foydalanish uchun tayyorlash nazariyasi hamda uslubiy yuzasidan malaka hosil qila boradilar. Shu bilan birga adabiy asarlar va tarixiy hujjatlar matni tarixi va uning manbalarini o'rganish, qo'lyozma nusxalarni farqlay olish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Mazkur o'quv fanini o'rganish uchun talabalardan avvalo, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, xususan adabiyot tarixi, yozuv tarixi, xattotlik san'ati va yozuv turlaridan ma'lum darajada tayyorgarlikka ega bo'lishlari kerak.</p> <p>Fanning vazifasi - O'qitish jarayonida test-sinov savollari orqali o'rgatish uslubini qo'llash va buni kompyuterlashtirish imkoniyatlari bor. Bu ayniqsa, adabiy manbashunoslik va matnshunoslikka oid atamalarining izohli lug'ati tarzida berilsa, mazkur sohalarning turli jihatlarini yuzasidan ko'nikma hosil qilish jarayonini tezlashtiradi.</p>		
	<p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga qauyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1- mavzu. Kirish suhbatlari. Fanning maqsad va vazifalari</p> <p>"Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari" fani va uning adabiyot tarixini o'rganishdagi ahamiyati. Matnshunoslik va manbashunoslikning adabiyotshunoslikda tutgan o'ri. O'quv fani oldida turgan maqsad va vazifalar. "Matnshunoslik", "manbashunoslik" tushunchalari va ularning ilmiy talqini.</p> <p>2- mavzu. O'zbek matnshunosligi: shakllanishi va tarixiy takomili</p> <p>O'zbek matnshunosligi va uning tarixiy ildizlari. Matn tuzish an'analarning yuzaga kelishi. Ilk va o'rta asrlar matnshunosligi.</p>		

3- mavzu. O'zbek kitobat tarixi. Ilk kitoblar

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati tarixida kitobot san'ati va uning yuzaga kelishi. Yozuv madaniyati. Ilk kitoblar. Ilk o'rta asrlarda kitobot san'ati. Bitig'oshlar va ularda yetib kelgan tarixiy-badiiy asarlar. Teri va va qog'ozga bitilgan matnlar. Buddizm, moniylik, nasroniy muhitida yaratilgan bitig'lar va ularning o'zbek kitobat tarixidagi o'rni.

4- mavzu. Temuriylar davri madaniyati va kitobot san'ati

Temuriylar davrida yuzaga kelgan sharq kitobot markazlari hamda ularda yaratilgan qo'lyozma kitoblar. Temuriylar davrida yashab ijod etgan xatnotlar. Temuriylar davlatida yozuv madaniyati. Hirotd, Samarqand, Yazd xatnotlik maktablari va ularda ko'chirilgan qo'lyozmalar.

5- mavzu. Kitob va uning turlari

Ilk va o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda yaratilgan kitoblar va ularning turlari: A) shakliga ko'ra: taxta, epigrafika, qo'lyozmalar – qog'oz, o'rta qog'oz, po'xti, jild, daftar va b.; B) asarlarning joylanishiga ko'ra: majmua, kulliyot, devon, bayoz, ilmiy asarlar va b.

6- mavzu. Qo'lyozma kitoblarning badiiy bezaklari

Sharq kitobat ishi va qo'lyozma kitoblarning badiiy bezaklari. Qo'lyozma kitoblarga ishlangan jadvallar, geometrik shakllar, naqshlar va miniatyuralar. Kitob muqovasi va uning badiiy bezaklari. Muqova turlari. O'rtnishda ishlatilgan qog'oz va uning turlari: samarqand, hirotd, qo'qon qog'oz va ularning sifati. O'rta Osiyoga rus qog'ozining kirib kelishi.

7- mavzu. Qo'lyozmalarning xat uslubi

Arab yozuvi qo'lyozmalar va ularda ishlatilgan xat turlari: kufiy, suls, nasx, nasxaliq, devoniy va b.. Ilk va o'rta asrlarda O'rta Osiyoda keng tarqalgan xat turlari.

8- mavzu. Qo'lyozma kitoblarni saqlash va ularni ilmiy o'rganish masalasi

Hozirgi zamon qo'lyozma fondlari. Yevropa ilmiy markazlarida mavjud qo'lyozma fondlar va ularda sharq qo'lyozmalarining saqlanish holati. Osiyo mamlakatlaridagi yirik qo'lyozma fondlar. O'zbekistondagi qo'lyozma fondlar haqida ma'lumot. O'zbekiston fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti va uning fondi. Shaxsiy arxivlar va ularni ro'yxatga olish masalasi.

9- mavzu. Toshbosma kitoblar va ularning yaratilish tarixi

O'rta Osiyoda litografiya usulida kitob bosishning yuzaga kelishi. Turkiston shaharlaridagi ilk litografiyalar va ularda kitob bosish. Litografik kitoblar va ularning mazmun-mundariyasi. Noshirlik.

6. Sodiqov Q. Oltin O'rda va Temuriylar davrida yaratilgan turkiy yozilgan tarixiy-filologik talqin. Toshkent, 2013.
7. Sodiqov Q., Omomov Q. Turkiy hujjatchilikning tarixiy iildizlari. Monografiya. Toshkent, 2012.
8. Аманжолов А.С. История и теория древнетюркского письма. Монография. Алматы, 2003.
9. Hakimov M. Sharq manbaxshunosligi lug'ati. Toshkent, 2013.
10. Tekin S. Eski tirklerde Yazı, Kağıt, Kitap ve Kağıt Damgalari. Istanbul, 2015.
Axborot manbalari 1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. 2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 3. www.turfanforschung.com 4. www.tonyukuk.com
7 O'quv dasturi "Mumtoz filologiya va adabiy manbaxshunoslik" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil "27" <i>biqmat</i> dagi "1" - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8 Fan/modul uchun mas'ul: Sodiqov Q. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Mumtoz filologiya va adabiy manbaxshunoslik kafedrası professori, filologiya fanlari doktori.
9 Taqrizchilar: Jo'rayev J. – O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori Alimxamedov R. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Mumtoz filologiya va adabiy manbaxshunoslik kafedrası mudiri, filologiya fanlari doktori

	<p>masalalarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>;</p> <ul style="list-style-type: none"> • adabiyot tarixida yaratilgan asarlardagi kishilik taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ilg'or fikrlarni anglash ko'nikmalariga ega bo'lishi; • ulug' va iste'dodli ijodkorlarning adabiy mahoratini o'rganishlari, adabiy janrlar tipologiyasi va uning nazariy masalalarini puxta egallashlari; • o'tmishda yaratilgan adabiy matnlarni o'qib, ularning badiiy o'zgachaliklarini tahlil eta olishi; • badiiy asarlar matni ustida ishlash va ularni nashrga tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Sodiqov Q. Matnshunoslik va manbushunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2017. 2. Sirojiddinov Sh., Umarova S. O'zbek matnshunosligi qirralari. Monografiya. Toshkent, 2015. 3. Sodiqov Q. Eski turkiy bitiglar. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2009. 4. Hasaniy M., Habibullayev A. Adabiy manbushunoslik va matnshunoslikning nazariy masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2012. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: "O'zbekiston", 2017. 2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: "O'zbekiston", 2016. 3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: "O'zbekiston", 2017. 4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. Toshkent: "O'zbekiston", 2017. 5. Sodiqov Q. "Muhokamatu-l-lug'atayn"ni o'qib o'rganish. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2011.

<p>10- mavzu. Qo'lyozma fondlar va ulardan foydalanish odobi. Sharq qo'lyozmalarini ilmiy tavsiflash</p> <p>Qo'lyozma fondlarida ishlash va u yerdagi kitoblardan foydalana bilish madaniyati. Qo'lyozmalarni ehtiyoqlab saqlash va ularni o'qish fazilati. Qo'lyozmalarni ilk tavsiflash. Monografik tavsif va uning talablari. Ilmiy katalog va uning turlari. Qo'lyozmalarning elektron nusxalaridan foydalanish.</p>	<p>11- mavzu. Asar qo'lyozmalari asosida ilmiy matn tuzish</p> <p>Ilmiy matn va uning ahamiyati. Qo'lyozma asosida matnning ilmiy nashrini amalga oshirish.</p>	<p>12- mavzu. Matn va uning turlari. Faksimil nashrlar, ularning fandiagi o'rni va ahamiyati</p> <p>Yaratilajak matnlar va ularning turlari: ilmiy, ilmiy-tanqidiy, yig'ma matn; ommaviy matnlar va ularni tayyorlash prinsiplari. Asarning faksimil nashri qo'lyozma o'rni bosuvchi tayanch manba sifatida. Foto-faksimillarning yuzaga kelish tarixi. Hozirgi zamonda yaratilayotgan faksimil nashrlar va ularning ilmiy-amaliy ahamiyati.</p>	<p>13- mavzu. Ilmiy-tanqidiy matn tuzishda asar qo'lyozmalarini saylab olish va ulardan foydalanish masalasi. Ilmiy transkripsiya, transliteratsiya, tabdil</p> <p>Ko'p qo'lyozma nusxali asarlar bo'yicha ilmiy, ilmiy-tanqidiy, yig'ma matn tuzish. Tayanch qo'lyozmani saylab olish masalasi. Bittagina qo'lyozmasi saqlangan asarning ilmiy matnini yaratish. Ilmiy transkripsiya, transliteratsiya, tabdil va ularning muhim belgilari, o'ziga xosligi. Ularning muhim ilmiy ahamiyati.</p>	<p>14- mavzu. Ilmiy matn tuzish prinsiplari. Matn texnikasi. Ilmiy apparat masalasi</p> <p>Ilmiy matn tuzishning muhim prinsiplari. Matn turini tanlash, qo'lyozma sahifalarini belgilab borish, matnning muhim o'rinlarini ajratib ko'rsatish: sarlavhalar, yangi fikrning boshlanishi, kishi, joy otlari, jumalarni chegaralab borish va b. Matn so'ngida kishi otlari, geografik otlar, grammatik ko'rsatkichlar va shuning singari boshqa ma'lumotlarni berish. Ilmiy matnning texnik xususiyatlari. Ilmiy kitoblarga havola masalasi. Sitata olish qoidalari. Ilmiy etika masalasi.</p>	<p>15- mavzu. Sharq matnshunosligida yaratilgan yirik kashfiyotlar. Bugungi o'zbek matnshunosligi va uning oldida turgan vazifalar</p> <p>Sharq matnshunosligida so'nggi yillarda yaratilgan yirik ishlar. Yevropa, Osiyo ilmiy markazlarida yirik sharqshunos olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy, ilmiy-tanqidiy, yig'ma matnlar. Sharq manbalari bo'yicha yaratilgan tarjimalarga umumiy e'kskurs.</p> <p>Navoiiy, Bobur, Ogahiy asarlari bo'yicha tuzilgan ilmiy matnlar. O'zbekistonda matnshunoslik sohasi va uning yutuqlari. O'zbek taniqli matnshunoslari. O'zbek</p>
---	--	---	---	---	--

matnshunosligining kelajak vazifalari.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari faniga kirish.
2. "Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari" fanining maqsad va vazifalari. Matnshunoslik va manbashunoslik sohalari va uning jamiyat ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida tugagan o'rni.
3. O'zbek matnshunosligi: shakllanishi va tarixiy takomili.
4. O'zbek kitobat tarixi.
5. Ilk kitoblar.
6. Temuriylar davri yozuv madaniyati va kitobat san'ati.
7. Kitob va uning turlari.
8. Qo'lyozma kitoblarning badiiy bezaklari.
9. Qo'lyozmalarning xat uslubi.
10. Qo'lyozma kitoblarni saqlash va ularni ilmiy o'rganish masalasi.
11. Toshbosma kitoblar va ularning yaratilish tarixi.
12. Sharq qo'lyozmalarini ilmiy tavsiflash.
13. Asar qo'lyozmalari asosida ilmiy matn tuzish.
14. Matn va uning turlari: ilmiy, ilmiy-tanqidiy, yig'ma matn; ommaviy matnlar.
15. Faksimil nashrlar: ularning fandagi o'rni va ahamiyati.
16. Ilmiy-tanqidiy matn tuzishda asar qo'lyozmalarini saylab olish va ulardan foydalanish masalasi.
17. Ilmiy transkripsiya, transliteratsiya, tabdil.
18. Ilmiy matn tuzish prinsiplari va e'tibor qaratiladigan masalalar.
19. Matn texnikasi.
20. Ilmiy apparat masalasi.
21. Sharq matnshunosligida yaratilgan yirik kashfiyotlar.
22. Bugungi o'zbek matnshunosligi va uning oldida turgan vazifalar.

Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini qo'lyozma va toshbosma manbalar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, targatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimni oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Matnshunoslik va manbashunoslikning yondosh sohalari.
2. Yozuv tarixi qay tarzda rivojlanib kelgan?
3. O'lkamizda ilk o'rta asrlarda ishlatilgan xat turlari.
4. Turkiy adabiyotining eng qadimgi manbalari.
5. Ilk islom davri manbashunosligining shakllanishi va rivojlanishi.
6. Yangi turdagi matnshunoslikning oyoqqa turishi va rivojlanish yo'nalishlari.
7. Ilk islom davri matnshunosligi.
8. XI—XIV asrlar matnshunosligining xususiyatlari.
9. Temuriylar davri matnshunosligi.
10. Matnlarni nashrga tayyorlash. Nashr turlari (davomiy).

"Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari" bo'yicha talabanning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari fanidan mustaqil ishlar majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va katta mavzu ko'rinishida shakllantirilgan. Manbashunoslik va matnshunoslik asoslari, Qo'lyozmalar fondi, Manbashunoslik tadqiqotlari, Matnshunoslik tahlili jarayoni, Matn tuzish prinsiplari.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, mavzuning nazariy va amaliy jihatlari bilan tanishadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konpekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan topshiriqlarni bajaradi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Uy vazifalarni tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari

Talaba bilishi kerak:

- Klassik ijodkorlar asarlari matni ustida ishlashning nazariy qoidalarini bilmog'i, yozma meros haqida *tasavvurga ega bo'lishi*;
- adabiyot tarixida yaratilgan asarlar, adabiyot tarixi va tarixiy taraqqiyoti